Buxoro viloyat adliya boshqarmasi hay'at
majlisining 2025-yil 21-yanvardagi 1/25-son
qaroriga 1-ilova

# Buxoro viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo'ljallangan ISH REJASI*

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar | Asos | Maqsad *(kutilayotgan natija)* | Baho-lash** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **I. ISHLARNI TASHKILLASHTIRISH, ADLIYA ORGANLARI VA MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH SOHASIDA** | | | | | | |
| **1.** | Boshqarma markaziy apparati tarkibiy bo'linmalari hamda tuman (shahar) adliya bo'limlari tomonidan 2024-yil davomida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish va kelgusidagi vazifalarni belgilash.<br>Natijasini hay'at majlisida muhokama qilish. | yanvar-fevral | **B.Mansurov,** boshqarma tarkibiy bo'limlari rahbarlari hamda tuman (shahar) adliya bo'limlari | Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-oktabrdagi 855-son qaroriga ko'ra hay'at Majlisi har chorakda o'tkazilib, unda boshqarma faoliyatining asosiy yo'nalishlariga oid masalalar muhokama etiladi va kelgusidagi vazifalar belgilanadi. | Adliya organlari va muassasalari faoliyatini qonuniy amalga oshirilishini ta'minlash hamda tizimli qonun buzilish holatlarini bartaraf qilish. | 1 |
| **2.** | Otaliqqa olingan maktablarda mavjud muammolarni o'rganib, ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy yordam ko'rsatilayotganligini, huquqiy targ'ibot va huquqiy tarbiya, milliy vatanparvarlik va sport tadbirlari o'tkazib boriliyotganligini tahlil qilish va muvofiqlashtirish.<br>Amalga oshirilgan tadbirlarni ommaviy axborot vositalarida yoritib borish. | yanvar-iyun | **S.Baqoyev,** tuman(shahar) adliya bo'limlari | Otaliqqa olingan yoshlar bilan tizimli ishlash jarayonini yanada jadallashtirish va huquqiy targ'ibot va huquqiy tarbiya, milliy vatanparvarlik va sport tadbirlari o'tkazib borish. | Otaliqqa olingan yoshlar bilan har bir mas'ulning o'z vaqtida va belgilangan reja asosida faoliyat yuritishi, yoshlar bilan olib borilayotgan ishlarni namunali darajaga ko'tarish. | 4 |
| **3.** | Boshqarma va uning tizimidagi xodimlar ish faoliyatini doimiy ravishda monitoring qilib borish va ularni rag'batlantirish yuzasidan doimiy ravishda takliflar kirirb borish | yanvar-iyun | **S.Baqoyev** | Boshqarma va uning tizimidagi idoralarda samarali faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarni aniqlash va ularni rag'batlantirib borish ularni ishchanligini oshiradi. | Samarali faoliyat ko'rsatayotgan xodimlarni rag'batlantirib borish ularni ishchanligiga ijobiy ta'sir qiladi. | 4 |
| **4.** | Hududlardagi yoshlar bo'yicha biriktirilgan mas'ullar tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarni joylarga chiqqan holda tahlil qilish yuzasidan grafik ishlab chiqish.<br>Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan rahbariyatga axborot kiritish. | yanvar<br><br>fevral-iyun | **S.Baqoyev** | Aksariyat hollarda hududlardagi yoshlar bo'yicha ishlaydigan mas'ullarning hisobotlarni o'z vaqtida umumlashtirmayotganligi, yoshlar bilan olib borilayotgan ishlarning natijasini ko'rsatib berilmayotganligiga sabab bo'lmoqda. | Hududlardagi yoshlar bilan ishlaydigan mas'ullarning har oyning oxirgi juma kunida taqdim etiladigan oylik hisobotining o'z vaqtida taqdim qilinishi va muhokama qilib borilishi natijasi,yoshlar bilan olib borilayotgan ishlarning ijobiy natijasini ko'rsatish. | 4 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad *(kutilayotgan natija)* | Baho-lash** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **5.** | Viloyat hamda tuman (shahar) hokimliklari bilan kelishgan holda adliya boshqarmasi ma’muriy binosini foydalanishga qabul qilish hamda Buxoro tuman Davlat xizmatlari markazi yangi binosining qurilish ishlarini yakunlash bo‘yicha barcha tegishli ishlarni amalga oshirish.<br>Boshqarma balansidagi xizmat uylarini ta’mirlash yuzasidan taklif kiritish. | yanvar-mart<br>fevral | **A.Davronov**<br>Sh.Yadgarov | Fuqarolarga qulay va sifatli xizmat ko‘rsatilishini ta'minlash.<br>. | Tizimdagi barcha xodimlarni qulay va barcha sharoitlarga ega zamonaviy binolarda faoliyat yuritishini ta’minlash | 1 |
| **6.** | Tizimda faoliyat ko‘rsatayotgan xodimlar bilan korrupsiya va jinoyatchilikka qarshi kurashish, odob-axloq qoidalariga rioya qilish bo‘yicha profilaktik suhbatlar va targ‘ibotlar o‘tkazib borish. | yanvar-iyun | **S.Baqoyev** | Kadrlar siyosatini to‘g‘ri yuritish hamda jinoyatchilik va korrupsiya holatlarini oldini olish. | Xodimlarni mehnat samaradorligini va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha ko‘nikmalarini oshirish. | 2 |
| **7.** | Tuman (shahar) adliya bo‘limlari faoliyatini muvofiqlashtirib borish yuzasidan biriktirilgan boshqarma markaziy apparati mas’ul xodimlari amalga oshirilgan ishlar yuzasidan haftada bir marotaba hisobot axborotini kiritish. | yanvar-iyun | **Boshqarma tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari** | Hududiy adliya bo’limlari ishlarning to‘g‘ri tashkillashtirilishiga erishish. | Hududiy adliya bo’limlari ishlarning to‘g‘ri tashkillashtirilishiga erishiladi. | 1 |
| **8.** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PF–143-son “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2024-yil 23-sentabrdagi PQ–330-son “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosi yuzasidan adliya bo‘limi rahbarlariga biriktirilgan oilalar yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni tahlil qilib borish.<br>Natijasi yuzasidan har hafta rahbariyatga axborot berish | yanvar-iyun | **Z.Bozorov** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PF–143-son “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2024-yil 23-sentabrdagi PQ–330-son “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosini tashkil qilish. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-sentabrdagi PF–143-son “Kambag‘allikni qisqartirish va aholi turmush farovonligini oshirish borasidagi chora-tadbirlarni yangi bosqichga olib chiqish to‘g‘risida”gi Farmoni hamda 2024-yil 23-sentabrdagi PQ–330-son “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturini amalga oshirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori ijrosini sifatli ta’minlash. | 1 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad (kutilayotgan natija) | Baho-lash** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| 9. | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF–80-son Farmonida belgilangan vazifalarning tuman (shahar) adliya bo‘limlari va uning tizimidagi idoralar tomonidan ijro etilishini joyiga chiqqan holda o‘rganish bo‘yicha buyruq loyihasini tayyorlash.<br>O‘rganish o‘tkazish va uning yakuni bo‘yicha rahbariyatga axborot hamda takliflar kiritish. | yanvar<br>fevral | **T.Azimov** | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF–80-son Farmonida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash. | Hududiy adliya bo‘limlari ishlarning to‘g‘ri tashkillashtirilishiga erishiladi. | 1 |
| 10. | Boshqarma va uning tizimidagi idoralar tomonidan “Yashil makon” umummilliy loyihasi bo‘yicha tuman (shahar)larda nihol ekish ishlarini tashkil qilish.<br>Natijasi yuzasidan axborot berish | mart-aprel | **A.Davronov,** Sh.Yadgarov, tuman (shahar) adliya bo‘limlari | O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi “Respublikada ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-46-son Farmoni ijrosi samarali tashkil etiladi. | Buxoro viloyatida ko‘kalamzorlashtirish ishlarini jadallashtirish, daraxtlar muhofazasini yanada samarali tashkil etish | 1 |
| 11. | Boshqarma markaziy apparati tarkibiy bo‘linmalari hamda tuman (shahar) adliya bo‘limlari tomonidan 2025-yilning I choragi davomida amalga oshirilgan ishlarni tahlil qilish va kelgusidagi vazifalarni belgilash.<br>Natijasini hay’at majlisida muhokama qilish. | aprel-may | **B.Mansurov,** boshqarma tarkibiy bo‘limlari rahbarlari tuman(shahar) adliya bo’limlari | Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 19-oktabrdagi 855-son qaroriga ko‘ra hay’at Majlisi har chorakda o‘tkazilib, unda boshqarma faoliyatining asosiy yo‘nalishlariga oid masalalar muhokama etiladi va kelgusidagi vazifalar belgilanadi. | Adliya organlari va muassasalari faoliyatini qonuniy amalga oshirilishini ta’minlash hamda tizimli qonun buzilish holatlarini bartaraf qilish. | 1 |
| 12. | Adliya organlari va muassasalari tomonidan o‘rnatilgan quyosh panellari ishlab chiqarayotgan elektr energiyasini doimiy (onlayn) ravishda monitoring qilish uchun elektron tizim o‘rnatish.<br>Quyosh panellari o‘rnatilmagan balansdagi binolarga o‘rnatish choralarini ko‘rish.<br>Natijasi yuzassidan Adliya vazirligiga axborot berish. | may<br>yanvar-iyun | **A.Davronov,** Sh.Yadgarov, tuman (shahar) adliya bo‘limlari | Adliya organlari va muassasalari tomonidan o‘rnatilgan quyosh panellaridan olinayotgan elektr energiyasi miqdorini nazoratini doimiy ravishda amalga oshirishda qiyinchiliklarni vujudga kelishi va ortiqcha vaqt talab qilinmoqda. | Quyosh panellaridan olinadigan elektr energiyasining doimiy monitoringni yo‘lga qo‘yish. | 4 |
| 13. | Huquqni qo‘llash amaliyotidagi hamda mahallalarda aniqlangan tizimli huquqiy | yanvar-iyun | **Boshqarma tarkibiy** | Qonunchilikdagi tizimli huquqiy muammolarni aniqlash va qonunchilik | Qonunchilikdagi tizimli huquqiy muammolar, qonunchilik | 4 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad *(kutilayotgan natija)* | Baho-lash** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | muammolarni, qonunchilik hujjatlaridagi bo‘shliq va ziddiyatlarni bartaraf etishga qaratilgan qonunchilikni takomillashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.<br>Takliflarni rahbariyatga kiritish. | har oyning 5-sanasiga qadar | **bo‘linmalari rahbarlari** | hujjatlaridagi bo‘shliq va ziddiyatlar bartaraf etish adliya organlari vazifalaridan hisoblanadi. | hujjatlaridagi bo‘shliq va ziddiyatlar bartaraf etiladi. | |
| **II. NORMA IJODKORLIGIDA YAGONA DAVLAT SIYOSATINI AMALGA OSHIRISH VA HUQUQIY AXBOROT SOHASIDA** | | | | | | |
| **14.** | Teleradiokanalar bilan hamkorlikda “Mening huquqim” va “Adliya xabarlari” rukni ostida chiqishlar tashkil qilish hamda mazkur huquqiy videoroliklarni ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirib borish. | yanvar-iyun | **Sh.Toyirov,** tuman (shahar) adliya bo‘limlari | Aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish yangi qabul qilingan qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyatini aholiga tezkorlik bilan yetkazish. | Aholining kundalik hayotida tez-tez uchrab turadigan muammoli vaziyatlarga huquqiy yechim berish borasida huquqiy savodxonligi oshiriladi. | 4 |
| **15.** | Boshqarma sho‘balari va adliya bo‘limlari faoliyatini yoritish yuzasidan “Adliya aralashgach”, “Bir murojaat izidan” va “Qonunchilikdagi yangiliklar”, “Adliya kuni” sarlavhasi ostida kundalik muammolarga huquqiy yechim topishga qaratilgan maqolalar, reportajlar, videoroliklar tayyorlash va ularni ommaviy axborot vositalari orqali keng tarqatish. | yanvar-iyun | **Sh.Toyirov,** tuman (shahar) adliya bo‘limlari | Aholini adliya organlari faoliyati haqida ma’lumotlarni yetarli darajada bilmasliklari ularning Adliya organlari tomonidan ko‘rsatilishi mumkin bo‘lgan huquqiy yordamlardan to‘laqonli foydalanmasligiga olib kelmoqda. | Adliya organlari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar to‘g‘risida targ‘ibot qilish orqali olib borilayotgan islohotlarni mazmun-mohiyatini misollar yordamida keng jamoatchilikka yetkazish hamda shaxslarning huquqlarini himoya qilinishini ta’minlashga ko‘maklashish. | 4 |
| **16.** | Aholi o'rtasida jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi murosasizlik tuyg'usini shakllantirish maqsadida targ’ibot tadbirlarini tashkil etish. | yanvar-iyun | **Sh.Toyirov,** tuman (shahar) adliya bo‘limlari | Aholi o'rtasida jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi murosasizlik tuyg'usini shakllantirish, huquqiy savodxonligini oshirish hamda bu orqali tegishli jinoyatlar sodir etilishi oldini olish bo‘yicha targ‘ibot tadbirlarini amalga oshirish. | Tashkil etiladigan targ‘ibot tadbirlari natijasida aholi o‘rtasida huquqbuzarlikka murosasizlik madaniyatini oshirish. | 4 |
| **17.** | Yangi qabul qilingan qonunchilik hujjatlari mazmun-mohiyatini boshqarma va uning tizimidagi idoralar xodimlariga tushuntirish yuzasidan o‘quv seminarlari tashkil qilib borish. | yanvar-iyun | **Sh.Toyirov,** tuman (shahar) adliya bo‘limlari | Xodimlarni huquqiy savodxonligini muntazam ravishda oshirib borish zaruriyatining mavjudligi. | Xodimlarni huquqiy savodxonligini oshirish orqali ular tomonidan joylarda o‘tkaziladigan targ‘ibot tadbirlari samaradorligini oshirish. | 4 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad *(kutilayotgan natija)* | Baho-lash** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **18.** | Mahalliy davlat hokimiyati organlarining norma ijodkorligi faoliyatida qonunchilikka rioya qilinish ahvolini tahlil qilish hamda mavzuga oid tahliliy videorolik va ko‘rsatuvlar tayyorlash hamda ularni ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish | yanvar-iyun | **A.Raxmanov,** tuman (shahar) adliya bo‘limlari | Aksariyat hollarda mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qarorlar qabul qilishda belgilangan talablarga rioya qilmaslik holatlari uchramoqda. Shuningdek, qarorlar loyihalari jamoatchilik muhokamasiga chiqarilmasdan qabul qilinmoqda. | Mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan qarorlar qabul qilishda qonuniylik hamda shaffoflik tamoyillari ta’minlanadi. | 4 |
| **19.** | “Prezident qarorlari - hayotda va nazoratda” rukni ostida tahliliy videorolik va ko‘rsatuvlar tayyorlash hamda ularni ijtimoiy tarmoqlarda keng yoritish | mart, iyun | **M.Davranov** | Aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish yangi qabul qilingan qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyatini aholiga tezkorlik bilan yetkazish. | Aholining huquqiy savodxonligini oshirish. | 4 |
| **III.HUQUQNI QO‘LLASH AMALIYOTINI O‘RGANISH VA METODIK TA’MINLASH, INSON HUQUQLARINI HIMOYA QILISH, PREZIDENT HUJJATLARI IJROSINI NAZORAT QILISH, YURIDIK TA’LIM VA SUD-EKSPERTIZA SOHASIDA** | | | | | | |
| **20.** | “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi Qonun ijrosi yuzasidan o‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga taalluqli ma’lumotlarni va hujjatlarni Kadastr agentligining avtomatlashtirilgan axborot tizimiga kiritilishi ustidan doimiy nazorat qilib borish.<br>Qonun ijrosini ta’minlashda vakolatli organlar tomonidan yo‘l qo‘yilgan qonunbuzilishi holatlarini o‘z vaqtida bartaraf etish choralarini ko‘rish. | yanvar-fevral | **A.Raxmanov** | “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi Qonun bilan adliya organlariga yuklatilgan vazifalar ijrosini ta’minlash. | “O‘zboshimchalik bilan egallab olingan yer uchastkalariga hamda ularda qurilgan binolar va inshootlarga bo‘lgan huquqlarni e’tirof etish to‘g‘risida”gi Qonun bilan adliya organlariga yuklatilgan vazifalar ijrosini samarali ta’minlash choralarini ko‘rish. | 3 |
| **21.** | O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining tizim tashkilotlari faoliyatida o‘rganish o‘tkazishni tashkil etish, bunda:<br>huquqni qo‘llash amaliyoti;<br>davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi; | yanvar-fevral | **A.Raxmanov,** M.Davranov, T.Azimov, B.Djamalov, Sh.Toyirov, B.Saidov, Sh.Jo‘rayev, | Amaldagi malaka talablari, o‘quv reja va dasturlari mazmun jihatidan bitiruvchilarda amaliy ko‘nikmalarni shakllantirishga yo‘naltirilmagan, o‘quv rejalarida nomutaxassislik fanlari ulushi yuqoriligicha qolmoqda. Oliy ta’lim muassasalari va kadrlar buyurtmachilari bilan o‘zaro | Talabalarning ishlab chiqarish, malakaviy va boshqa turdagi amaliyotlarini mazmunli tashkil etish uchun uslubiy baza takomillashtiriladi hamda o‘quv rejalarida fanlar sonini nomutaxassislik fanlari hisobiga bosqichma-bosqich kamaytirish | 3 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad *(kutilayotgan natija)* | Baho-lash** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | qonunchilik hujjatlari (shu jumladan Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi;<br>inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo‘nalishlari;<br>ma’muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko‘rsatish holati;<br>tartibga solish ta’sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish va norma ijodkorligi faoliyati;<br>yuridik xizmat faoliyati;<br>intellektual mulk sohasi;<br>huquqiy targ‘ibotni amalga oshirilishini o‘rganish.<br>Natijasi bo‘yicha tegishli chora ko‘rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma’lumotnoma kiritish. | | tuman (shahar) adliya bo‘limlari | hamkorlikda kadrlar tayyorlash bo‘yicha ishlar samarali yo‘lga qo‘yilmagan, ish beruvchilarning oliy ta’lim mazmunini shakllantirishdagi ishtiroki yetarli emas.<br>Shuningdek, ishlab chiqarish korxonalarida amaliy mashg‘ulotlar samarali tashkil etilmagan, tayyorlanayotgan mutaxassislar malakaviy darajasi mehnat bozorining zamonaviy talablariga yetarlicha javob bermaydi. | hamda tutashlikdagi fanlarni tanlov fanlari ro‘yxatiga kiritish. | |
| **22.** | O‘zbekiston Respublikasi Prezident hujjatlari ijrosini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar ahvolini tahlil qilish.<br>Natijasi bo‘yicha axborot-tahliliy ma’lumotnomani har hafta boshqarma rahbariyatiga kiritish. | yanvar-iyun | **M.Davranov** | Davlat organlari tomonidan Prezident qarorlari va hujjatlari ijrosini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarnii tahlil qilib borish. | Prezident qarorlari va hujjatlari ijrosini o‘z vaqtida va sifatli ta’minlash | 3 |
| **23.** | Davlat organlari tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezident hujjatlari ijrosini ta’minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarni jamoatchilik va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirokida tahlil qilish.<br>Natijasi bo‘yicha jamoatchilik eshituvini o‘tkazish. | yanvar-iyun | **M.Davranov** | Aholining huquqiy ongi va madaniyatini oshirish yangi qabul qilingan qonunchilik hujjatlarining mazmun-mohiyatini aholiga tezkorlik bilan yetkazish. | Aholining huquqiy savodxonligini oshirish. | 3 |
| **24.** | Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamlarining huquqlari kafolatlarini oshirish maqsadida “huquqiy ko‘mak” aksiyasini tashkil etish.<br>Shuningdek, aksiya doirasida nogironligi va kasalligi mavjud shaxslarga davolanishi uchun order berish hamda aholining | fevral-mart | **T.Azimov,** Sh.Toyirov, tuman (shahar) adliya bo‘limlari | Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlamiga nisbatan qonunchilikda belgilangan imtiyozlar va kafolatlarning qo‘llanmasligi kabi va boshqa holatlari bo‘yicha murojaatlar kelib tushmoqda. | Ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami huquqlarini himoya qilish yo‘nalishida qonunchilik hujjatlari ijrosi holati va amaliyoti tahlil qilinadi, muammosi mavjud shaxslarga amaliy ko‘mak ko‘rsatiladi hamda aniqlangan huquqiy muammo va kamchiliklari | 3 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad (*kutilayotgan natija)* | Baho-lash** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | ehtiyojmand toifalarini tibbiy xizmatlardan foydalanishi holatlarini o‘rganish.<br>Aksiya natijasi bo‘yicha Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma’lumotnoma kiritish. | | | Shuningdek, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami huquqlarini himoya qilish yo‘nalishida “huquqiy ko‘mak” aksiyasini tashkil etish orqali ularning huquqlari kafolatlari ta’minlanadi.<br>Nogironligi yoki kasalligi mavjud shaxslarga davolanishi uchun order berish hamda aholi ehtiyojmand toifalarining tibbiy xizmatlardan foydalanishi, masalasida murojaatlar ortib bormoqda.<br>Shuningdek, order berish jarayoni uzoq vaqt olayotganligi sababli fuqarolarning haqli e’tirozlariga sabab bo‘lmoqda. | bartaraf etilib, sohani takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi. | |
| **25.** | O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligining tizim tashkilotlari faoliyatida o‘rganish o‘tkazishni tashkil etish, bunda:<br>huquqni qo‘llash amaliyoti;<br>davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi;<br>qonunchilik hujjatlari (shu jumladan, Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi;<br>inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo‘nalishlari;<br>ma’muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko‘rsatish holati;<br>tartibga solish ta’sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish va norma ijodkorligi faoliyati;<br>yuridik xizmat faoliyati;<br>intellektual mulk sohasi;<br>huquqiy targ‘ibotni amalga oshirilishini o‘rganish. | mart-aprel | **A.Raxmanov,**<br>M.Davranov,<br>T.Azimov,<br>B.Djamalov,<br>Sh.Toyirov,<br>B.Saidov,<br>Sh.Jo‘rayev,<br>tuman (shahar) adliya bo‘limlari | Vazirlik faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalar mavjudligi, shuningdek vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to‘siqlar mavjudligi holatlari uchramoqda. | Vazirlik faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarni qisqartirish, vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to‘siqlarni qisqartirish. | 3 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar | Asos | Maqsad *(kutilayotgan natija)* | Baho-lash** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Natijasi bo'yicha tegishli chora ko'rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish. | | | | | |
| **26.** | Aholi muammolarini joyiga chiqqan holda o'rganish orqali, har bir fuqaroga individual yondashuvni joriy etishga qaratilgan "Bepul huquqiy maslahat bilan har bir uyga" shiori ostida aholiga huquqiy yordam berishga qaratilgan huquqiy aksiya o'tkazish. | may | **Sh.Toyirov**, T.Azimov, A.Davronov, Sh.Yadgarov, tuman (shahar) adliya bo'limlari | "Bepul huquqiy maslahat bilan har bir uyga" shiori ostida aholiga huquqiy yordam berishga qaratilgan huquqiy aksiya o'tkazish orqali muammolarni joyiga chiqqan holda o'rganib, har bir fuqaroga maksimal darajada individual yondashgan holda huquqiy maslahat berish orqali jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirish zarur | Aholining huquqiy muammolarini maksimal darajada joylardagi mahallalarning o'zida hal etish. Fuqarolarga huquqiy tushuntirish berish orqali targ'ibotni amalga oshirish. | 4 |
| **27.** | O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligining tizim tashkilotlari faoliyatida o'rganish o'tkazishni tashkil etish, bunda:<br>huquqni qo'llash amaliyoti;<br>davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi;<br>qonunchilik hujjatlari (shu jumladan, Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi;<br>inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo'nalishlari;<br>ma'muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko'rsatish holati;<br>tartibga solish ta'sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazish va norma ijodkorligi faoliyati;<br>yuridik xizmat faoliyatini;<br>intellektual mulk sohasi;<br>huquqiy targ'ibotni amalga oshirilishini o'rganish. | may-iyun | **A.Raxmanov,** M.Davranov, T.Azimov, B.Djamalov, Sh.Toyirov, B.Saidov, Sh.Jo'rayev, tuman (shahar) adliya bo'limlari | Agentlik faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalar mavjudligi, shuningdek vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlar mavjudligi holatlari uchramoqda | Agentlik faoliyatida takrorlanuvchi vazifa va funksiyalarni qisqartirish, vazifa va funksiyalarning amalga oshirish jarayonida ortiqcha byurokratik to'siqlarni qisqartirish. | 3 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad *(kutilayotgan natija)* | Baho-lash** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Natijasi bo‘yicha tegishli chora ko‘rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma’lumotnoma kiritish. | | | | | |
| **28.** | O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo‘mitasining tizim tashkilotlari faoliyatida faoliyatida o‘rganish o‘tkazishni tashkil etish, bunda:<br>huquqni qo‘llash amaliyoti;<br>davlat boshqaruvi tizimining samaradorligi;<br>qonunchilik hujjatlari (shu jumladan, Prezident hujjatlari) va topshiriqlarning bajarilishi;<br>inson huquqlarini himoya qilish sohasidagi faoliyat yo‘nalishlari;<br>ma’muriy tartib-taomillarga rioya etilishi va davlat xizmati ko‘rsatish holati;<br>tartibga solish ta’sirini baholash, korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o‘tkazish va norma ijodkorligi faoliyati;<br>yuridik xizmat faoliyatini;<br>intellektual mulk sohasi;<br>huquqiy targ‘ibotni amalga oshirilishini o‘rganish.<br>Natijasi bo‘yicha tegishli chora ko‘rish hamda Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma’lumotnoma kiritish. | iyun | **A.Raxmanov,**<br>M.Davranov,<br>T.Azimov,<br>B.Djamalov,<br>Sh.Toyirov,<br>B.Saidov,<br>Sh.Jo‘rayev,<br>tuman (shahar) adliya bo‘limlari | Mazkur sohada vazirlik tomonidan oxirgi uch yillikda o‘rganish va monitoring o‘tkazilmagan. Bojxona ma’muriyatchiligi va bojxona imtiyozlarini qo‘llash bilan bog‘liq ko‘plab murojaatlar kelib tushmoqda. | Bojxona ma’muriyatchiligi takomillashtirish va bojxona imtiyozlarini qo‘llash bo‘yicha yagona huquqni qo‘llash amaliyotini yo‘lga qo‘yish. | 3 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad *(kutilayotgan natija)* | Baho-lash** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **29.** | Xodimlarning mehnat huquqlari kafolatlarini ta’minlash maqsadida “Xodimlarning mehnat huquqi kafolati” nomli “huquqiy ko‘mak” aksiyasini tashkil etish.<br>Aksiya natijasi bo‘yicha Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma’lumotnoma kiritish. | iyun | **T.Azimov,** Sh.Toyirov, tuman (shahar) adliya bo‘limlari | Xodimlarning mehnat huquqlari kafolatlarini ta’minlanmayotganligi va boshqa kamchiliklar bo‘yicha murojaatlar kelib tushmoqda.<br>Shuningdek, xodimlarning mehnat huquqlari kafolatlarini ta’minlash yo‘nalishida “huquqiy ko‘mak” aksiyasini tashkil etish orqali ularning huquqlari kafolatlari ta’minlanadi. | Xodimlarning mehnat huquqlari kafolatlarini ta’minlash yo‘nalishida qonunchilik hujjatlari ijrosi holati va amaliyoti tahlil qilinadi, muammosi mavjud shaxslarga amaliy ko’mak ko‘rsatiladi hamda aniqlangan huquqiy muammo va kamchiliklari bartaraf etilib, sohani takomillashtirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqiladi. | 3 |
| **30.** | Viloyatda suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish bilan bog‘liq topshiriqlar ijrosini tahlil qilish.<br>Natijasi bo‘yicha Adliya vazirligiga axborot kiritish | iyun | **M.Davranov,** tuman (shahar) adliya bo‘limlari | “Ijro.gov.uz” tizimi orqali ayrim topshiriqlar ijrosi ta’minlanmaganligi, mablag‘ yetishmovchiligi hamda mas’ul ijrochilarning bu borada ishlarni to‘g‘ri tashkil etmaganligi aniqlandi.<br>Shu bois, ushbu sohani tahlil qilish va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklarni bartaraf etish zaruriyati mavjud. | Mazkur soha bo‘yicha hududlarda qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirilishini ta’minlash, mavjud muammolarni bartaraf etish bo‘yicha tahliliy ma’lumotnoma va takliflar tayyorlanadi. | 3 |
| **IV. HUQUQIY XIZMAT VA NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLAR SOHASIDA** | | | | | | |
| **31.** | “Advokatura to‘g‘risida”gi, “Advokatlik faoliyatining kafolatlari va advokatlarning ijtimoiy himoyasi to‘g‘risida”gi Qonunlar va boshqa shu sohadagi qonunosti hujjatlar ijrosini adliya boshqarmasidan ro‘yxatdan o‘tgan quyidagi advokatlik tuzilmalarida o‘rganish:<br>a) **“THE BEST GENERATION”** advokatlik byurosi advokatlik byurosi,<br>b) **“BOBOQULOV JAXON”** advokatlik byurosi;<br>s) “**NEW BUXORO**” advokatlik byurosi<br>d) “**ADVOKAT RUSLAN ERKINOVICH**” advokatlik byurosi;<br>e) “**RAUPOV OTABEK JURABEKOVICH**” advokatlik byurosi.<br>Natijasiga ko‘ra taklif kiritish. | fevral<br>mart<br>aprel<br>may<br>iyun | **H.Tohirov** | “Advokatura to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 17-moddasida advokatlar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga, shuningdek advokatlik tuzilmalari tomonidan ta’sis hujjatlariga, ustavda belgilangan faoliyatiga, qayta ro‘yxatdan o‘tish va tugatish tartibiga rioya etilishini nazorat qilishi belgilangan. Mazkur tashkilotlar faoliyati oxirgi 3 yilda o‘rganilmagan. | Advokatlik tuzilmalar faoliyatini qonuniy amalga oshirilishini ta’minlash hamda tizimli qonun buzilish holatlarini bartaraf qilish. | 3 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad *(kutilayotgan natija)* | Baho-lash** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **32.** | Nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda ijtimoiy sohada loyihalar tuzish va ularni amalga oshirish yuzasidan ishlarni tashkil etish. | har chorakda | **A.Axmedov** | Nodavlat notijorat tashkilotlari bilan adliya organlari hamkorligini kuchaytirish. | Ijtimoiy sohada loyihalarni amalga oshirish orqali aholini qo‘llab quvvatlash. | 3 |
| **33.** | “Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimida mavjud bo‘lgan ma’lumotlar asosida notariuslar tomonidan ko‘chmas mulkni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish yuzasidan talabnoma yuborish holatini kameral tekshirish orqali o‘rganish.<br>Natijasi yuzasidan tahliliy ma’lumot tayyorlash va tegishli chora qo‘llash hamda Adliya vazirligiga axborot kiritish. | fevral | **H.Tohirov** | Notariuslar tomonidan “Notarius” avtomatlashtirilgan axborot tizimi orqali belgilangan tartibda notarial harakatga oid ma’lumotlarni vakolatli organga yuborilishi talablariga rioya qilinishi ahvolini tahlil qilish. | Notariuslar tomonidan notariat to‘g‘risidagi qonunchilik hujjatlariga rioya etilishi, shu jumladan, notariuslar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga, notarial harakatlar maxfiyligiga va notarius qasamyodiga rioya qilinish holatini o‘rganish. | 3 |
| **34.** | Qonunchilik hujjatlariga, shu jumladan, litsenziya talablari va shartlariga, notarial harakatlar maxfiyligiga va notarius qasamyodiga rioya qilinishini quyidagi notarial idoralari tomonidan 2021-2023-yillar davomidagi ish faoliyatida o‘rganish.<br>a) Buxoro shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius **Hamroeva Zaynab Oripovna**;<br>b) Buxoro shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar **Akramova Nodira Axtamovna**;<br>s) Buxoro shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius **Bozorova Shahlo Karim qizi**;<br>d) Buxoro shahrida xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notarius **Tilloyev Izatillo Ziyodulloyevich**;<br>Natijasiga ko‘ra taklif kiritish. | mart<br>aprel<br>may<br>iyun | **H.Tohirov** | Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 16-martdagi 156-son qarori bilan tasdiqlangan “Xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida Nizomi”ning 41-bandiga ko‘ra notariuslar ish faoliyatida rejali tekshirish uch yilda kamida bir marta o‘tkaziladi. Notarius ish faoliyatini dastlabki tekshirish u ish faoliyatini boshlaganidan bir yil o‘tgandan so‘ng amalga oshiriladi. | Notariuslar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga, notariat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga, notarial harakatlar maxfiyligiga va notarius qasamyodiga rioya qilinishi ustidan nazoratni ta’minlash. | 3 |
| **35.** | 2025-yilning yanvar-aprel oylarida notariuslar tomonidan “Notarius” AAT tizimi orqali avtotransport va ko‘chmas mulk bilan bog‘liq notarial harakatlarni amalga oshirishda FHDYning elektron arxiv | may-iyun | **H.Tohirov** | O‘zbekiston Respublikasi “Notariat to‘g‘risida”gi Qonunida Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, adliya boshqarmalari o‘z vakolatlari doirasida notariuslar | Notariuslar tomonidan avtotransport va ko‘chmas mulk bilan bog‘liq notarial harakatlarni amalga oshirishda qonuniylikni ta’minlash | 2 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad *(kutilayotgan natija)* | Baho-lash** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | ma’lumotlari bazasidan ma’lumotlarni olinishi yuzasidan umumlashtirish o’tkazish. | | | tomonidan amalga oshirilgan notarial harakatlarning qonuniyligi ustidan nazoratni amalga oshirishi, xususiy amaliyot bilan shug‘ullanuvchi notariuslar tomonidan litsenziya talablari va shartlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirilishi, shuningdek, notarial amaliyotni umumlashtirishlarni amalga oshirishi belgilangan.<br>Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 18-noyabrdagi “Notariuslar tomonidan ayrim notarial harakatlarni amalga oshirish tartibi to‘g‘risidagi ma’muriy reglamentlarni tasdiqlash haqida”gi 726-son qarori bilan tasdiqlangan tegishli ma’muriy Reglamentlar talablariga ko‘ra, avtotransport va ko‘chmas mulk bilan bog‘liq notarial harakatlarni amalga oshirishda FHDYning elektron arxiv ma’lumotlari bazasidan tegishli ma’lumotlarni olinishi belgilangan. | | |
| **36.** | Yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari tomonidan elektron tizim orqali kelib tushgan loyihalarni ko‘rib chiqish muddatiga rioya qilinishi, asossiz rad qilish hamda berilayotgan xulosalarning qonuniyligini monitoring qilish.<br>Natijasiga ko‘ra taklif kiritish. | mart, iyun | **B.Saidov** | Adliya vazirining 2021-yil 19-noyabrdagi 313-son buyrug‘iga asosan “E-huquqshunos” elektron tizimi orqali Yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari faoliyatining samaradorligini baholash tartibi (KPI) joriy qilinib, yuridik xizmat ko‘rsatish markazlarining faoliyatini har chorakda tizim orqali baholanib borish belgilangan.<br>Biroq, ba’zi tuman (shahar) yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari bosh yuriskonsultlari tomonidan xizmat | Viloyat adliya boshqarmasi tomonidan tuman (shahar) yuridik xizmat ko‘rsatish markazlari bosh yuriskonsultlari tomonidan xizmat ko‘rsatiladigan tashkilotlarining huquqiy hujjatlariga berilayotgan xulosalarning qonuniyligini monitoring qilinishi viloyatdagi markazlar faoliyatining samaradorligi ko‘rsatkichi baholanib, ushbu sohada bir xilda huquqni qo‘llash amaliyoti shakllantiriladi | 2 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar | Asos | Maqsad (kutilayotgan natija) | Baho-lash** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | ko'rsatiladigan tashkilotlarining qonun hujjatlariga zid bo'lgan huquqiy hujjatlariga xulosalar berilmoqda. | | |
| **37.** | Quyidagi nodavlat notijorat tashkilotlari va diniy tashkilotlar faoliyatini o'rganish:<br>a) O'zbekiston hamshiralar assotsiatsiyasi Buxoro viloyat bo'linmasi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi Buxoro viloyat bo'limi;<br>b) O'zbekiston Karlar jamiyati Buxoro viloyat bo'limi; O'zbekiston nogironlar jamiyatining Buxoro viloyat hududiy bo`limi;<br>c) "Respublika Turkman madaniyat markazi Buxoro viloyat hududiy bo'linmasi, O'zbekiston Nogironlar assotsiatsiyasi Buxoro viloyat hududiy bo'limi;<br>d) O'zbekiston ko'zi ojizlar jamiyati Buxoro viloyat bo'limi.<br>Natijasiga ko'ra taklif kiritish. | mart<br>aprel<br>may<br>iyun | **A.Axmedov** | Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 8-avgustdagi 635-son qaroriga muvofiq ushbu tashkilotlarda oxirgi uch yil davomida o'rganish o'tkazilmagan. | Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyati ustavda belgilangan maqsadlarga hamda O'zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini nazorat qilinishi ta'minlanadi. | 3 |
| **V. DAVLAT XIZMATLARI SOHASIDA** | | | | | | |
| **38.** | O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzurida aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlari ko'rsatish sohasida amalga oshirilgan islohotlar samaradorligi bo'yicha o'tkaziladigan yig'ilishga tayyorgarlik ko'rish.<br>Amalga oshirilgan ishlar yuzasidan taqdimot, tahliliy ma'lumotnoma va takliflar tayyorlash hamda rahbariyatga axborot kiritish. | yanvar | **B.Djamolov**<br>**A.Mubarakov** | Adliya vazirining 2025-yildagi 13-yanvardagi 14-um-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash | Adliya vazirining 2025-yildagi 13-yanvardagi 14-um-sonli buyrug'i ijrosini ta'minlash | 2 |
| **39.** | Quyidagi FHDY organlarining 2024-yil, 2025-yilning o'tgan davridagi faoliyatini, xususan davlat xizmatlarini ko'rsatish va huquqni qo'llash amaliyotini tekshirish. | | **A.Mubarakov** | Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 20-oktbyardagi 550-son qarori bilan tasdiqlangan "Fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd etish | FHDY bo'limlari faoliyatini qonuniy amalga oshirilishini ta'minlash hamda tizimli qonun buzilish holatlarini bartaraf qilish. | 3 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas’ul ijrochilar | Asos | Maqsad *(kutilayotgan natija)* | Baho-lash** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | Buxoro shahar 2-son FHDY bo‘limi va FHDY arxivi;<br>G‘ijduvon tuman FHDY bo‘limi;<br>Vobkent tuman FHDY bo‘limi;<br>Kogon shahar va Kogon tumani FHDY bo‘limlari;<br>Romitan tuman FHDY bo‘limi;<br>Peshku tuman FHDY bo‘limi.<br>Natijasi bo‘yicha tegishli choralar ko‘rish. | yanvar<br><br>fevral<br>mart<br>aprel<br><br>may<br>iyun | | qoidalari”ning 222-bandi asosan FHDY organlarining faoliyatini har yili tekshirishi lozim. | | |
| **40.** | Davlat xizmatlari markazlari tomonidan 2024-yil 2-yarim yilligida firma nomlarini zahiraga olishda tegishli qonunchilik hujjatlari talablariga rioya etilganligi holatini monitoring qilish.<br>Natijasi yuzasidan taklif kiritish. | fevral-mart | **A.Mubarakov,** tuman (shahar) adliya bo‘limlari | Tizim vositasida zahiraga olingan firma nomlari orasida foydalanilishi qonun hujjatlari bilan taqiqlangan, adashtirib yuborish darajasida o‘xshash bo‘lgan, hatto faoliyat yuritib kelayotgan korxonalar bilan bir xil nomdagi firma nomlari zahiraga olib berilganligi aniqlanmoqda.<br>Bundan tashqari, firma nomida davlat rasmiy nomidan foydalanish qoidalarini buzish holatlari ham uchramoqda.<br>Shunga ko‘ra, zahiraga olingan firma nomlarini tahlil qilish va yo‘l qo‘yilgan kamchiliklar yuzasidan mas’ul xodimlarga nisbatan chora ko‘rish, shuningdek hududiy adliya boshqarmalariga tegishli ko‘rsatmalar berish lozim. | Monitoring natijasida firma nomlaridan foydalanishga oid qonun hujjatlari talablari buzilishi kamayadi.<br>Shuningdek, tadbirkorlik sub'ektlarining o‘z firma nomlariga bo‘lgan huquqlari buzilishining oldi olinadi. | 2 |
| **41.** | “Buxoro hududiy elektr tarmoqlari korxonasi” AJ tomonidan 2024-yil va 2025-yilning o‘tgan davri mobaynida davlat xizmatlari ko‘rsatilishi ahvolini o‘rganish.<br>Natijasi bo‘yicha tegishli ta’sir choralarini ko‘rish. | fevral<br>mart | **B.Djamalov** tuman (shahar) adliya bo‘limlari | Mazkur davlat xizmatini ko‘rsatilishi yuzasidan aholi tomonidan ko‘plab murojaatlar kelib tushayotganligi sababli | Davlat xizmati ko‘rsatilishini tahlil qilish va qonunbuzilish holatlarini bartaraf etish yuzasidan tegishli ta’sir choralar qo‘llash. | 3 |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar | Asos | Maqsad (*kutilayotgan natija*) | Baho-lash** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **42.** | 2024-yilda dxa.gov.uz elektron tizimida yangi joriy etilgan davlat xizmatlarini tahlil qilish.<br>Ma'muriy reglament va elektron tizimda aniqlangan muammolarni bartaraf qilish borasida taklif tayyorlash va Adliya vazirligiga taqdim qilish. | aprel-may | **A.Mubarakov,** tuman (shahar) adliya bo'limlari | Amaliyotda davlat xizmatini ko'rsatishda elektron tizim hamda ma'muriy reglament o'rtasida ayrim muammolar mavjud.<br>Masalan ma'muriy reglamentda ariza beruvchi so'rovnomani elektron imzolashi belgilangan biroq dxa.gov.uz elektron tizimida so'rovnomani elektron imzolash amaliyoti joriy etilmagan. | Ma'muriy reglament va elektron tizimdagi nomuvofiqliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar tayyorlash. | 2 |
| **43.** | Tuman (shahar) kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlari tomonidan elektron tizim orqali kelib tushgan arizalarni ko'rib chiqish muddatiga rioya qilinishi hamda rad qilishning qonuniyligini monitoring qilish.<br>Natijasiga ko'ra taklif kiritish. | aprel may | **B.Djamalov** tuman (shahar) adliya bo'limlari | Bugungi kunda ishsiz deb e'tirof etish va ishsizlik nafaqasini tayinlash bo'yicha kelib tushgan arizalarni ko'rib chiqishda rad etilganlar salmog'i yuqoriligicha qolmoqda va bu idoralar xodimlari xatti-harakatlaridan noroziligi haqidagi murojaatlar ko'paymoqda. | Tuman (shahar) kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limlari faoliyatini qonuniy amalga oshirilishini ta'minlash hamda tizimli qonun buzilish holatlarini bartaraf qilish. | 4 |
| **44.** | 2025-yil 1-choragida tuman (shahar) Davlat xizmatlari markazlari tomonidan eng ko'p ko'rsatilgan davlat xizmatlarini tahlil qilish.<br>Tahlil natijasida markaz xodimlari tomonidan yo'l qo'yilayotgan xato va kamchiliklarni aniqlash natijasi bo'yicha taklif kiritish. | may | **A.Mubarakov** | Tahlil natijasida 2024-yil davomida tuman (shahar) davlat xizmatlari markazi tomonidan kadastr va arxitektura sohasida eng ko'p davlat xizmatlari ko'rsatilgan va bu soha markaz xodimlari tomonidan yo'l arim holatlarda xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilmoqda. | Davlat xizmatlari markazlari tomonidan davlat xizmatlarini ko'rsatish jarayonida xato va kamchiliklarga yo'l qo'yilishini oldini olish. | 2 |
| **45.** | Viloyat miqyosida tadbirkorlik subyektlari – yuridik va jismoniy shaxslarni qayta ro'yxatdan o'tkazishda muddat buzish, asossiz rad etish va ortiqcha hujjat talab etish holatlarini monitoring tartibida o'rganish hamda natijasi yuzasidan tahliliy ma'lumotnoma tayyorlash va Adliya vazirligiga kiritish. | iyun | **A.Mubarakov** | Davlat xizmatlari markazlari orasida tadbirkorlik subyektlarini qayta ro'yxatdan o'tkazishda qonuniylikni mustahkamlash maqsadida ular faoliyatini doimiy nazorat qilish lozim.<br>Davlat xizmatlari markazlari tomonidan rad etilgan onlayn arizalar o'rganilganda ayrim holatlarda asossiz rad etish holatlari aniqlangan. | Tadbirkorlik subyektlarini qayta ro'yxatdan o'tkazishda qonunbuzilishi holatlari oldi olinadi hamda kamayadi. | 2 |
| **VI. INTELLEKTUAL MULK SOHASIDA** | | | | | | |

| № | Tadbir nomi | Ijro muddati | Mas'ul ijrochilar | Asos | Maqsad *(kutilayotgan natija)* | Baho-lash** |
|---|---|---|---|---|---|---|
| **46.** | Tanlov asosida intellektual mulkka oid huquqbuzarliklar yuzasidan sud tomonidan qabul qilingan qarorlar mazmun va mohiyatini tushuntirib boruvchi "Sud qaroriga sharh" ruknida chiqishlar qilish. | fevral | **Sh.Jo'rayev,** Sh.Toyirov | Jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan o'zga shaxslarning intellektual mulkka bo'lgan huquqlari buzilganda qonunda javobgarlik nazarda tutilganligi bo'yicha huquqiy bilimlari yetarli darajada bo'lmaganligi. | Aholining huquqiy savodxonligini oshirish. | 4 |
| **47.** | Ta'lim tizimining barcha bosqichlarida intellektual mulk bo'yicha dastlabki ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan seminar tadbirlarini o'tkazish. | aprel | **Sh.Jo'rayev,** Sh.Toyirov | Keyingi vaqtlarda umumiy o'rta ta'lim maktablari va o'rta maxsus ta'lim muassasalarida intellektual mulk bo'yicha dastlabki ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan seminar tadbirlari o'tkazilmasdan qolmoqda. | Umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalarida ta'lim oluvchilarning intellektual mulkka bo'lgan hurmat hissini shakllantirish hamda huquqiy bilimlarini oshirish. | 4 |
| **48.** | Respublikamiz hududida joylashgan yirik savdo majmualarida realizatsiya qilinayotgan tovarlarning kontrafaktlik darajasini o'rganish hamda ushbu hududlarni kontrafaktsiz hududga aylantirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish.<br>Natijasi yuzasidan Adliya vazirligiga axborot kiritish. | aprel | **Sh.Jo'rayev** | Respublikamizdagi yirik savdo majmularida ayrim tovarlarning kontrafakt nusxalari uchramoqda.<br>Shunga ko'ra, yirik savdo obyektlarida profilaktik tadbirlar o'tkazish orqali ularni "Kontrafaktsiz hudud"ga aylantirish bo'yicha amaliy yordam beriladi. | Yirik savdo majmualarini kontfaktsiz hududga aylantirish | 3 |
| **49.** | Hunarmandchilik buyumlarining dizaynini intellektual mulk obyekti sifatida ro'yxatga olish, baholash, sug'urtalash, tashkilot balansida aks ettirish va uni sotish uchun qulay shartsharoitlar yaratish istiqbollarini o'rganish, natijasi yuzasidan Adliya vazirligiga axborot-tahliliy ma'lumotnoma kiritish | may | **Sh.Jo'rayev** | Hunarmandlar tomonidan o'z buyumlarini intellektual mulk sifatida muhofaza qilish sustligi hamda savdo nuqtalarida hunarmandchilik buyumlari faqat suvenir sifatida past baholarda sotilayotganligi aniqlandi. | Ro'yxatdan o'tkazilgan hunarmandchilik buyumlari sonini oshirish va bunday buyumlarni qo'shimcha qiymat bilan sotish imkoniyatini yaratish. | 2 |

Izoh: * Ish rejada nazarda tutilgan tadbirlar adliya boshqarmasining mavjud bino, moliyaviy mablag'lari va moddiy-texnik vositalari doirasida amalga oshiriladi. Alohida resurslar talab qilinmaydi.

** Ish rejada belgilangan tadbirlar mazkur reja ilovasidagi jadvalga muvofiq tegishli baholash yo'nalishi (raqami) bo'yicha baholanadi. Mezon balini aniqlash ikkinchi ko'rsatkichni (amalga oshirilgan ishlar bo'yicha ko'rsatkich miqdorini) mezon bo'yicha maksimal ballga ko'paytirish, mazkur natijani birinchi ko'rsatkichga bo'lish orqali amalga oshiriladi. Bunda, agar ikkinchi ko'rsatkich birinchi ko'rsatkichdan katta bo'lsa, ikkinchi ko'rsatkich miqdori birinchi ko'rsatkichga teng qilib olinadi.

Buxoro viloyat adliya boshqarmasining 2025-yil
I va II choraklarga (I yarim yillikka) mo‘ljallangan ish rejasiga ilova

## Ish rejada belgilangan tadbirlarni baholash yo‘nalishlari va mezonlari jadvali

| Yo‘nalish raqami | Baholanayotgan yo‘nalish nomi | Yo‘nalishning baholash mezonlari | Mezonni belgilash uchun taqqoslanuvchi ko‘rsatkichlar | Mezon bo‘yicha maksimal bali | Yo‘nalish bali |
|---|---|---|---|---|---|
| 1. | **Adliya organlari va muassasalari faoliyatini tahlil qilish** | Faoliyati baholanganligi | *Adliya organlari soni bilan baholangan Adliya organlar soni* | 50 | 100 |
| | | Tizimli tahlil amalga oshirilganligi | *tahlil soni bilan tizimli amalga oshirilgan tahlil soni* | 25 | |
| | | Muddatga rioya qilish | *rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat* | 25 | |
| 2. | **Normativ-huquqiy hujjat loyihasi, tahliliy ma’lumot va boshqa takliflar** | Taklifning asoslanganligi | *loyihada nazarda tutilgan jami qismlar bilan loyihaning NHH va faktlar bilan asoslangan qismlari* | 25 | 100 |
| | | Taklifda muammoni tizimli va asl sabablarini bartaraf qilish nazarda tutilganligi | *Loyiha soni bilan loyihada tizimli va asl sabablarini bartaraf qilish nazarda tutilganligi* | 25 | |
| | | Taklif bo‘yicha asoslantirishda taklif amaliyotga kiritilgandan so‘ng kutilayotgan ijobiy natija aks etganligi | *Loyiha soni bilan loyihada kutilayotgan ijobiy natija* (foiz, miqdor va boshqalarda) *nazarda tutilganligi* | 25 | |
| | | Muddatga rioya qilish | *rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat* | 25 | |
| 3. | **Davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini nazorat qilish (tekshirish, o‘rganish, monitoring va boshqalar) natijasida ta’sir choralar ko‘rish** | O‘rganish qamrovi | *savolnomadagi band soni bilan ularning har bir bo‘yicha asoslar soni* | 20 | 100 |
| | | Qonunbuzilishning asoslanganligi | *qonunbuzilishlar soni bilan NHH va faktlarga asoslangan qonunbuzilishlar soni* | 20 | |
| | | Qonunbuzilishni bartaraf qilinganligi | *bartaraf qilinishi lozim bo‘lgan qonunbuzilishlar soni bilan ularning bartaraf qilinganlari soni* | 20 | |
| | | Javobgarlik choralari qo‘llanilishi | *Javobgarlik tortilishi lozim bo‘lgan shaxslar soni bilan javobgarlikka tortilgan shaxslar soni* | 20 | |
| | | Muddatga rioya qilish | *rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat* | 20 | |
| 4. | **Ko‘rsatkichlar va vazifalar bajarilganligi** | Ko‘rsatkichlar-vazifalar bajarilganligi | *Normativ va ichki hujjatlar hamda rejadagi ko‘rsatkichlar bilan bajarilgan ko‘rsatkichlar miqdori* | 75 | 100 |
| | | Muddatga rioya qilish | *rejalashtirilgan muddat bilan amalga oshirilgan muddat* | 25 | |